https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Nizomiddinov Ozodbek Otabek o'g'li

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti

2-bosqich bakalavr talabalari

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM: SALOHIYATI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolani yozishimning sababi yurtimizda Ekoturizmga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda sayyohlarni ekoturizm vaqtidagi madaniyatini yuksaltirish. O'zbekistonning ekoturizm salohiyati va imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Annotation

I write this article in order to increase the interest in ecotourism in our country and to raise the culture of tourists in ecotourism. It shows the potential and potential of ecotourism in Uzbekistan.

Аннотация

Причина, по которой я пишу эту статью, заключается в повышении интереса к экотуризму в нашей стране и повышении культуры туристов во время экотуризма.Заключается в демонстрации потенциала и возможностей экотуризма Узбекистана.

Kalit so'zlar

Ekoturizm, Yunesko, speleologiya, gid, ekotur.

Kirish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ekoturizm nima? Hozirgi kunda insoniyat ekologik muammolarni hal qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga katta e’tibor bermoqda. Turizm sohasi ham bu jarayonda alohida o‘rin egallaydi. Shu kontekstda, ekoturizm tabiiy muhitni muhofaza qilish va mahalliy madaniyatni asrab-avaylashga asoslangan barqaror turizm yo‘nalishi sifatida shakllandi. Ekoturizm nafaqat sayohatni anglatadi, balki inson va tabiat o‘rtasida mas’uliyatli munosabatlarni shakllantirishning samarali vositasi hamdir. Ekoturizm tabiatni muhofaza qilishga ham, rivojlanishiga ham hissa qo'shishi mumkin. U hech bo’lmaganda, ushbu faoliyatni tegishli tashkil etish va boshqarish tomonidan qo’llab- quvatlanadigan, turizm, bioxilma-xillik va mahalliy jamoalar o'rtasidagi ijobiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ekoturizm an'anaviy turizmdan tabiiy turizm obektlarining ustunligi, kam resurs va energiya sarfi, sayyohlarning ekologik tarbiyasi bilan farq qiladi. Ekoturizn 1990 yilda rasmiy maqomga ega bo’ldi va shu bilan o'zining har yili "Adventure Travel & Ekotourizm bo’yicha yillik Butunjahon Kongressi" xalqaro simpoziumini chaqirish va notijorat tashkilotlarini yaratish huquqiga ega bo’ldi. Ekoturizmning asosiy tamoyillari yaxshi saqlanib qolgan tabiiy hududlarni ziyorat qilish, tiklanmaydigan tabiiy resurslardan barqaror loydalanish, tabiiy, ijtimoiyva madaniy xilma-xillikni saqlash, muayyan (ancha qat'iy) xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, an'anaviy turizm turlariga resurslardan kamroq, intensiv foydalanish, qaraganda tabiiy sayyohlarning ekologik tarbiyasi, ularning mahalliy madaniy va tabiatni boshqarish faoliyatida ishtirok etishi, ekologik sayohatlarni puxta rejalashtirish, ularni ishlab chiqish va amalga oshirishga kompleks yondoshish kabilar kiradi.

Atrof-muhit uchun foydasi Ekoturizm orqali tabiiy bog‘lar, qo‘riqxonalar va ekologik ahamiyatga ega hududlar muhofaza qilinadi. Bu esa yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvon va o‘simlik turlarini asrashga yordam beradi. Bundan tashqari mahalliy aholi uchun imkoniyatlar Mahalliy jamoalar uchun ish o‘rinlari yaratiladi. Masalan, qo‘llanma xizmatlari, hunarmandchilik mahsulotlarini sotish va mehmonxonalar boshqaruvi orqali aholi daromad manbalarini kengaytiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shuningdek turistlar uchun afzalliklar Ekoturizm turistlarga tabiat bag‘rida dam olish, yangi madaniyatlarni o‘rganish va ekologik ongni rivojlantirish imkonini beradi. Bu turizm shakli insonning ichki xotirjamligini oshirishga ham yordam beradi.

O‘zbekistonning ekoturizm salohiyati va rivojlanishi

O‘zbekiston boy tabiiy va madaniy merosga ega mamlakat sifatida ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. 2024-yilning yanvar-iyul oylarida O‘zbekistonga 4,2 mln xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, ularning oqimi 2023- yilga nisbatan 15,3 foizga oshgan. Bundan tashqari Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori asosida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun **“Tabiatga sayohat” elektron platfor**masi va uning mobil ilovasini ishlab chiqishga buruq berildi. Bundan tashqari O‘zbekistonning **ekoturizm xaritasini** ishlab chiqish va chop etish. Yana bir muhim qarorlardan biri Ekohududlarda turoperatorlar tomonidan turizm xizmatlarini tashkil qilish davomida sayyohlar xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tartibni belgilash haqidagi buyrug’iga asosan Turoperatorlik firmalari tomonidan “Toshkent-Chorvoq-Toshkent”,“Toshkent-Bildirsoy-ChimyonToshkent”, “Toshkent-Zomin-Toshkent”, “Toshkent-Aydarko‘l-Toshkent” kabi marshrutlarda o‘tkazilgan ekoturlar, cho‘l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor va e'tiroflariga sazovor bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekistonning Hisor, Bobotog‘, Ko‘hitangtog‘ (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg‘ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog‘lari, Qizilqum cho‘lidagi qoldiq tog‘lar, Qizilqum cho‘li, Orol dengizining qurigan tubi va qodiq sho‘r ko‘llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho‘rxogi, Mingbuloq botig‘i, Aydarko‘l, Dengizko‘l, Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to‘qaylar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari bo‘ylab majmuali va mavzuli ekoturlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tashkil etish to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmaganShuningdek G’or turizmida ham amalga oshirilishi kerak bo’lgan ishlar bor masalan yurtimizda 500dan ortiq g‘orlar bo‘lib, ma'lumotlarga ko‘ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo‘lmaganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti. O’zbekistonda 17 mingdan ortiq tabiiy suv omborlari 51 ta suv ombori, 500 ta ko’llar va 1.5 mingdan ortiq buloqlar mavjud. Shu va boshqa imkoniyatlardan foydalinish orqali yurtimzga yana ko’plab sayyohlarni jab qilish mumkin. O’zbekistonning ekoturizm salohiyati orqali turistlar sonini yanada tezroq, pandemiyadan oldingi davrdagiga yetkazib olishimiz hattoki undan oshirib olishimiz mumkin.

Ugam-Chotqol milliy bog‘i: Landshaftlari bilan mashhur va turistlar uchun qiziqarli joylardan biri. O‘zbekiston hududida YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan noyob milliy bog‘ mavjud. Bu bog‘ sayyoramizning haqiqiy mo‘jizasi bo‘lib, o‘zining beg‘ubor tabiati, ajoyib tabiiy va tarixiy qadamjolari bilan hayratga soladi. Ugom-Chotqol milliy bog‘i 1990-yilda Bo‘stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlarini o‘z ichiga olgan Toshkent viloyati hududida tashkil etilgan. Ulug‘vor tog‘lar ko‘p sonli daralar va kanyonlarni hosil qiladi hamda ular orasidan Pskom, Chotqol, Ugom va Ko‘ksuv tog‘ daryolari oqib o‘tadi.

Zomin dam olish maskani: Go‘zal tog‘lar fonida dam olish uchun ajoyib maskan. Bu yerda ulug‘vor tog‘lar, maftunkor tabiat va musaffo havo ortida ekologik, sog‘lomlashtiruvchi, madaniy-sport turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu yerda siz mahalliy aholining kundalik hayotida ishtirok etishingiz, hosil yig‘im-terimida ishtirok etishingiz, tog‘ oldi tekisliklari bo‘ylab ot minishingiz, dor yo‘llarda uchishingiz va agar qo‘lingizdan kelsa, alpinism va hatto speleologiya – tog‘ g‘orlari haqidagi fan bilan shug‘ullanishingiz mumkin.

Bundan tashqari o’rmon xo’jaligida ham bir qancha imkoniyatlar mavjud: Mo’ynoq davlat o’rmon xo’jaligi Nukus shahridan 207 km uzoqlikda joylashgan. o’z ichiga “Kemalar qabristoni”, “O’rmonchilar eko bog’i”, “Orol tarixi muzeyi”ni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ladi. Bu yerda qurigan orol dengizi ostidagi eski kemalarni hamda qurigan dengizdagi hayratlanarli eko bog'ni ko'rish mumkin.

Boysun DO'X: O'zbekistondagi eng katta va tabiiy resusrlrga ega bo'lgan eko markazlardan biri. Bu yerda siz har hil sharshara va ekstrimal daralarni ko'rishingiz mumkin. Bundan tashqari har hil ko'llar va g'orlar insonda o'zgacha hissiyot uyg'otadi. Misol uchun dunyoga mashxur va eng qadimgi odamlardan birining suyaklari topilgan "Teshiktosh"" g'ori mavjud.

Ekoturizmning muammolari va ularni hal qilish yo'llari

O'zbekiston ekoturizmni rivojlantirishda bir qator muammolarga duch kelmoqda

1. Infratuzilamning yetishmasligi: Qulay transport va xizmat ko'rsatish tizimlari mavjud emasligi. Mehmonxona va gidlarning yetishmasligi. Buning oldini olish uchun qulay va zamonaviy yo'llarni qurish va shubday avtotransport bilan taminlash lozim.

2. Ekologik ong yetarli darajada rivojlanmagan: Ba'zi turistlar va mahalliy aholining ekologik mas'uliyati past darajada. Bu muammolarni hal qilish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, ta'lim va targ'ibot dasturlarini amalga oshirish kerak.

3. Xalqaro va mahalliy reklamaning zaifligi buning natijasida xalqaro sayyohlarni jalb qilish sust. Raqamli platformalarda, xususan ijtimoiy tarmoqlarda faol reklama yuritish orqali mahalliy va xalqaro sayyohlarni imkon qadar tezroq jalb qilish mumkin.

Xulosa: Ekoturizm – bu faqat sayohat qilish emas, balki atrof-muhitni saqlash, madaniyatlarni qo'llab-quvvatlash va kelajak avlodlarga tabiiy boyliklarni yetkazib berishdir. O'zbekiston ekoturizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega va bu yo'nalishda zarur chora-tadbirlarni ko'rish barqaror turizm rivojlanishiga xizmat

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qiladi. Ekoturizmni rivojlantirish orqali O’zbekiston ekologik barqarorlikni taminlash va iqtisodiy salohiyatini oshirishga erishiladi. Ekoturizmning rivoji nafaqat turistlarni jalb qilish, balki tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni targ‘ib etishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat mahalliy iqtisodiyotga foyda keltiradi, balki O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz sayti
2. Gazeta.uz sayti
3. Egamberdieva I.Sh. “Ekoturizm” Toshkent-2021 234-bet
4. O’zbekiston statistika qo’mitasi
5. O’rmon xo’jaligi agentlig